Так, в группе с дефицитом витамина D (1-я группа) анемия была диагностирована у 45% детей, во 2-й группе с недостаточностью витамина D — у 30%, тогда как среди детей с нормальным уровнем витамина D (3-я группа) данный показатель составил лишь 25%. Полученные данные указывают на тесную взаимосвязь между обеспеченностью организма витамином D и показателями железного обмена. Дефицит витамина D, по данным ряда исследований, может способствовать нарушению эритропоэза и усвоения железа за счёт снижения активности гепцидина и нарушений метаболизма кальция и фосфора, что в совокупности приводит к развитию железodefицитных состояний. Таким образом, высокая частота анемии среди детей с дефицитом витамина D отражает сочетанное влияние нутритивной недостаточности и хронических воспалительных процессов, характерных для рецидивирующих бронхолегочных

заболеваний.

Вывод. Таким образом, у детей дошкольного возраста с рецидивирующим обструктивным бронхитом выявлена выраженная зависимость клинической картины заболевания от уровня витамина D в сыворотке крови. Наиболее тяжёлое течение отмечено у детей с дефицитом витамина D, характеризующееся частыми рецидивами, длительным сухим кашлем, тахикардией и выраженной обструкцией. Коррекция витамин D-дефицита должна рассматриваться как один из компонентов комплексной терапии и профилактики рецидивирующего обструктивного бронхита у детей дошкольного возраста.

List of references

- [1] Абдукадирова Н. Б Железодефицитные анемии у детей различного возраста на фоне заболеваний желудочно-кишечного тракта // *Doktor axborotnomasi*. — 2025. — № 1.1 (118). — С. 10-13
- [2] М. В. Лим, Н. М. Шавази — «Влияние показателей микроклимата в лечении и профилактике рецидивирующих обструктивных бронхитов у детей». *Доктор ахборотномаси* № 4 (108), 2022.
- [3] Хусаинова Ш.К., Мухаммадиева Л.А., Кулдашев С.Ф. — «Современные аспекты рецидивирующего бронхита у детей». *Кардиореспиратор тадқиқотлар журналі, специальный выпуск*. 2022. С 230-238
- [4] Хакимниязова Г. Современные методы исследования железодефицитной анемии у детей // *Журнал академических исследований нового Узбекистана*. — 2025. — Том 2, № 2. — С. 162-164
- [5] Шерматов Р.М., Солиев Б., Атаджанова Д.Ш. Особенности клинического течения железодефицитной анемии у детей раннего возраста // *Klinik va profilaktik tibbiyot jurnali*. — 2023. — № 4. — С. 101-108.
- [6] Azizova N.D., Kabilova D.K., Zokirov B.K. — «Risk Factors and Clinical Features of Recurrent Bronchitis in Children». *International Journal of Medical Sciences*, 2025
- [7] Kabilova D.K., Azizova N.D., Zokirov B.K. — «Recurrent Bronchitis in Children: Clinical Features and Immunological Predisposition». *International Journal of Artificial Intelligence*, 2025.
- [8] Martineau AR, Jolliffe DA, Hooper RL, Barnes NC, Greiller CL, et al. Vitamin D supplementation to prevent acute respiratory infections: a systematic review and meta-analysis. *Lancet Diabetes Endocrinol*. 2021;9(5):276–292.
- [9] Hibbs AM, Ross K, Kerns LA, et al. Effect of vitamin D supplementation on recurrent wheezing in black infants: the D-Wheeze RCT. *JAMA*. 2018;319(20):2086–2094.
- [10] Optimal methods of vitamin D supplementation to prevent acute respiratory tract infections: systematic review and meta-analysis. *Nutrition Journal*.
- [11] Jolliffe DA, Camargo CA Jr, Sluyter JD, Aglipay M, Aloia JF, Ganmaa D, Bergman P, et al. Vitamin D supplementation to prevent acute respiratory infections: systematic review and meta-analysis of aggregate data from randomised controlled trials. *medRxiv [Preprint]*. 2020 Nov 25:2020.07.14.20152728. doi: 10.1101/2020.07.14.20152728
- [12] Lanham-New S.A., Webb A.R., Cashman K.D. et al. Vitamin D and the SARS-CoV-2/COVID-19 virus. *BMJ Nutrition, Prevention & Health* 2020. - PMC - PubMed

Article/Original paper

PREDICTING THE POSSIBILITY OF DEVELOPING MULTIORGAN DEFICIENCY SYNDROME IN PATIENTS WITH PERITONITIS

I.B.Mamatkulov¹  M.B.Khaydarov¹  A.B.Beknazarov¹ 

1. Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan.

Abstract.

Study Objective: To determine the feasibility of predicting the development of multiple organ dysfunction syndrome (MODS) in children with peritonitis based on an analysis of blood coagulation (hemostasis) parameters.

Materials and Methods: The study included 52 children aged 6 to 18 years admitted to the surgical department of the Tashkent State Medical University, with a diagnosis of peritonitis confirmed during surgery. Patients were divided into three groups:

- Group I (22 children): with localized peritonitis.
- Group II (22 children): with generalized peritonitis but without obvious clinical and laboratory signs of sepsis (with one or two signs of a systemic inflammatory response).
- Group III (8 children): with generalized peritonitis and pronounced clinical and laboratory signs of sepsis.

Results: Initial analysis showed that all patients with peritonitis had increased blood coagulation compared to normal. Further observation of the disease revealed the following:

- Children in Group I successfully managed peritonitis thanks to the therapy administered, and they did not develop POES.
- In Group II, POES developed in 10% of patients, and in 50% of patients in Group III. In cases of POES development, a change in treatment strategy was required.

Conclusion: A study of the blood coagulation system in children with peritonitis allowed us to identify three types of the body's response to abdominal infection:

- Favorable type: characterized by the absence of POES and the presence of no more than two signs of a systemic inflammatory response.
- Questionable type: accompanied by the development of POES in 10% of cases, with no more than two signs of a systemic inflammatory response.
- Unfavorable type: associated with the development of POES in 50% of cases and the presence of more than two signs of a systemic inflammatory response, indicating abdominal (peritoneal) sepsis.

Key words: peritonitis, multiple organ failure, children, hemostasis, fibrinolysis.

Kirish. Tarqalgan peritonit bilan og'riqan bemorlarda abdominal sepsis bosqichidagi poliorgan yetishmovchilik o'limning eng keng tarqalgan sababidir. Ushbu toifadagi bemorlarda hayotiy organlar va tizimlarning disfunktsiyasi asosan to'qima qon oqimining buzilishi, tomir ichida qonning tarqoq ivish sindromi TIQTIS va tizimli yallig'lanish reaksiyasi sindromi (TYaRS) bilan bog'liq holatlar klinik amaliyotda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi [1]. Abdominal (peritoneal) sepsis — bu keng tarqalgan peritonitning keyingi bosqichi bo'lib, uch yoki undan ortiq klinik hamda laborator belgilar mavjud bo'lgan davr bilan tavsiflanadi. Ushbu bosqichda, odatda, TIQTIS va poliorgan yetishmovchiligi sindromi (POYeS) rivojlanishi kuzatiladi [2]. POYeS ni o'z vaqtida aniqlash va uning patogenetik jihatdan asoslangan davolash usullarini qo'llash zamonaviy sharoitda peritonit bilan og'riqan bemorlarni samarali davolashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [3]. Shu sababli, POYeS rivojlanish xavfini oldindan baholash uchun intensiv terapiya jarayonida qon aylanishi, endogen intoksikatsiya darajasi va gemostaz tizimining turli tarkibiy qismlarining funksional holatini ifodalovchi ko'rsatkichlarning diagnostik ahamiyatini aniqlash dolzarb vazifalardan biridir [4].

Tadqiqotning maqsadi: qon ivish tizimi (gemostaz) ko'rsatkichlarini tahlil qilish asosida peritonit bilan og'riq bolalarda poliorgan yetishmovchilik sindromi (POES) rivojlanishini bashorat qilish imkoniyatini aniqlashdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqot Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti klinikasining jarrohlik bo'limida olib borildi. Umumiy hisobda 6–18 yosh oralig'idagi 52 nafar peritonit tashxisi bilan yotqizilgan bemor ishtirok etdi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari:

- kasallik boshlanganidan 24 soat ichida kasalxonaga murojaat etgan bo'lishi;
- bemorning tadqiqotda ishtirok etishga roziligi;
- gemostaz tizimi faoliyatining avvaldan buzilishiga olib keladigan kasalliklarning yo'qligi.

Chiqarib tashlash mezonlari:

- qorin bo'shlig'i a'zolarining shikastlanishi yoki o'ziga xos mikroflora bilan bog'liq birlamchi va uchlamchi peritonit holatlari;
- gemostaz tizimi yetishmovchiligi yoki irsiy buzilishlar mavjudligi;
- qon ivish jarayoniga ta'sir etuvchi dori vositalarini qabul qilish;
- surunkali a'zolar shikastlanishining mavjudligi.

Peritonit tashxisi barcha hollarda intraoperativ yo'l bilan tasdiqlandi. Bemorlar uchta guruhga ajratildi:

1. I-guruh (22 bemor) — mahalliy peritonit;
2. II-guruh (22 bemor) — keng tarqalgan peritonit, ammo sepsis belgilari aniqlanmagan (TYaRSning 1–2 belgisi);
3. III-guruh (8 bemor) — keng tarqalgan peritonit va sepsisning aniq klinik-laborator belgilari (TYaRSning 3–4 belgisi).

Gemostaz tizimini baholashda ARP-01 "Mednord" (Tomsk sh.) qurilmasi yordamida gemokoagulografiya usuli qo'llanildi. Bu metod qonning reologik xususiyatlari, trombositlar-faollik, koagulyatsiya va fibrinoliz jarayonlari holati haqida ma'lumot olish imkonini beradi.

Tahlil jarayonida quyidagi ko'rsatkichlar o'rganildi:

- Ar — reaksiya davrining amplitudasi (me'yori $6,1 \pm 1,2$ nisbiy birlik), shaklli elementlarning spontan agregatsiyasini aks ettiradi;
- r — reaksiya davomiyligi ($5,91 \pm 0,63$ daq), protrombin faolligini bildiradi;
- k — trombin faolliigi ($5,20 \pm 0,45$ daq), protrombinaza va trombin hosil bo'lish jarayonini ko'rsatadi;
- T — maksimal amplitudaga erishish va to'liq laxta hosil bo'lish vaqti ($48,0 \pm 5,2$ daq), prokoagulyant va antikoagulyant tizimlarning faoliyatini ifodalaydi;
- Am — maksimal amplituda (589 ± 63 nisbiy birlik), hosil bo'lgan laxtaning tuzilma mustahkamligini bildiradi;
- F — laxtaning retraksiyasi va lizis darajasi ($17,2 \pm 3,2$ %), fibrinoliz jarayonining intensivligini aks ettiradi.

Gemokoagulyatsiya ko'rsatkichlari uch bosqichda o'rganildi:

- 1 operatsiyadan keyingi dastlabki 4 soat ichida;
- 2 birinchi sutka oxirida;
- 3 uchinchi kunida.

Ushbu ma'lumotlar standart biokimyoviy ko'rsatkichlar (trombositlar soni, protrombin indeksi, faollashtirilgan qisman tromboplastin vaqti — FQTV, umumiy fibrinogen darajasi) bilan solishtirilib tahlil qilindi [5]. Endogen intoksikatsiya darajasi va o'rta massali molekularning (O'MM) tarkibi Kalf-Kalifa indeksini hisoblash yo'li bilan aniqlandi [6,7]. Tekshirilgan bemorlarning gemodinamik holati yurak qisqarishlar soni (YuQS), sistolik arterial qon bosimi (SAB) va diastolik arterial qon bosimi (DAB) asosida baholandi. Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash Statistica 6.0 for Windows dasturi yordamida amalga oshirildi. Noparametrik Mann-Uitni mezonlari o'rganilayotgan guruhlar orasidagi statistik farazlar farqlarini sinash uchun ishlatilgan [8].

Ushbu tadqiqotda statistik taxminlarni tekshirish jarayonida r ning ahamiyatlilik darajasi 0,05 deb qabul qilindi. Olingan natijalar M ning arifmetik o'rtacha qiymati va uning standart og'ishi (SO)

ko'rinishida ifodalandi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari va ularning tahlili shuni ko'rsatdiki, tadqiqotning birinchi bosqichida barcha uchta guruhdagi bemorlarda gemostaz tizimining koagulyatsion qismi faolligining me'yordan oshganligi kuzatildi. Bu holat gemokoagulogramma ko'rsatkichlarining vaqt bo'yicha qisqarishi bilan namoyon bo'ldi, ya'ni r ko'rsatkichi 1,4 baravar, k 1,5 baravar, T esa 1,4 baravar qisqargan. Shu bilan birga, tarkibiy Am ko'rsatkichi 1,4 baravarga oshganligi qayd etildi. Shuningdek, I va II guruhlar o'rtasida k ko'rsatkichda statistik jihatdan sezilarli farq qayd etilgan. Tadqiqotning ikkinchi bosqich I guruhda r, k qiymatlarining birinchi bosqichga nisbatan statistik jihatdan sezilarli o'sishi va Am ning pasayishi qayd etildi (T ko'rsatkichi bir xil darajada qoldi). Ikkinchi guruhda tahlil qilingan asosiy ko'rsatkichlar deyarli o'zgarishsiz qoldi, faqatgina T ko'rsatkichi biroz o'rtacha darajada oshganligi kuzatildi. Uchinchi guruhda esa xronometrik konstantalarning keskin oshish tendensiyasi qayd etildi, lekin strukturaviy Am ko'rsatkichi sezilarli darajada kamaymadi. Bu holat odatda gemostaz tizimining koagulyatsion bo'g'ini faolligining pasayganini anglatadi. Birinchi guruhda tadqiqotning uchinchi bosqichida o'lchangan barcha xronometrik va strukturaviy ko'rsatkichlar (r, k, T, Am) me'yor chegarasida bo'ldi. Shuningdek, p, k va Am ko'rsatkichlari bo'yicha tadqiqotning birinchi va uchinchi bosqichlari orasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlangan. Ikkinchi guruhda esa r va T qiymatlarining qisqarishi davom etdi, k esa asta-sekin normal holatga qaytdi, Am esa o'z darajasini saqlab qoldi. Ushbu guruhdagi statistik jihatdan muhim farq r, k va T bo'yicha tadqiqotning birinchi va uchinchi bosqichlari o'rtasida ham aniqlandi. III guruhda xronometrik konstantalar uzayishda davom etdi va tarkibiy konstantalar kamaydi (me'yorgacha), bu koagulopatiyaning rivojlanishini ko'rsatadi. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, uchinchi guruhda tadqiqotning birinchi va uchinchi bosqichlari orasida tarkibiy hamda xronometrik ko'rsatkichlarda sezilarli farqlar aniqlangan. Shuningdek, uchinchi bosqichda uchinchi guruh bilan birinchi va ikkinchi guruhlar o'rtasida ham ishonchli statistik tafovutlar ($p < 0,05$) qayd etildi. Tadqiqotning dastlabki bosqichida trombositlarning agregatsiya faolligi darajasi (Ar ko'rsatkichi) barcha guruhlarda me'yoriy qiymatlarga nisbatan o'rtacha 1,5 baravar yuqori bo'lgan. Keyingi, ya'ni ikkinchi va uchinchi bosqichlarda esa Ar ko'rsatkichining sezilarli darajada kamayishi kuzatildi. Tadqiqotning I va II guruhlardagi ikkinchi va uchinchi bosqichlarida Ar normaga yaqinlashdi va III guruhda esa I va II guruhlariga qaraganda statistik jihatdan past edi. Tadqiqotning birinchi bosqichida barcha guruhlar bo'yicha fibrinolitik faollik darajasi (F ko'rsatkichi) me'yoriy qiymatlardan biroz yuqoriroq bo'lgani kuzatildi. Bu holat, ehtimol, gemostazning koagulyatsion qismi faollashganida organizm tomonidan yuzaga keladigan kompensatsion javob reaksiyasi bilan izohlanadi. Guruhlar o'rtasida olib borilgan taqqoslash natijasida statistik jihatdan ishonchli farqlar aniqlanmadi. Tadqiqotning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida F ko'rsatkichi birinchi va ikkinchi guruhlarda avvalgi darajada deyarli o'zgarib qoldi. Biroq uchinchi guruhda, shuningdek u bilan solishtirilgan birinchi va ikkinchi guruhlar orasida faqat tadqiqotning yakuniy bosqichida F ko'rsatkichining oshishi shaklida sezilarli tafovut kuzatildi. Gemokoagulogramma parametrlarining dinamik o'zgarishlari intensiv terapiya bosqichlari bo'yicha 1-jadvalda aks ettirilgan. Statistik tahlil natijalariga ko'ra, uchinchi guruh bemorlarida trombositlar soni tadqiqotning so'nggi bosqichida ancha kamaygani qayd etildi. Bu holat TIQTIS rivojlanishining kech bosqichlariga xos tipik belgidir. Protrombin nisbati (PN) esa barcha guruhlarda va tadqiqotning barcha bosqichlarida me'yor chegarasida saqlanib qoldi. Guruhlararo hamda bosqichlararo taqqoslash natijasida PN ko'rsatkichi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli farqlar qayd etilmadi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichi barcha guruhlarda FQTB qisqarishi kuzatildi, bu giperkoagulyatsion siljishni ko'rsatadi. Keyingi bosqichlarda ushbu ko'rsatkich III guruhdan tashqari barcha guruhlarda normallasishi kuzatildi, bu erda uning ozgina ko'payishi aniqlandi, bu gemokoagulyatsiya kaskadining ichki yo'li bo'ylab qon ivish faktor omillari etishmovchiligining rivojlanishini ko'rsatishi mumkin.

Umumiy fibrinogen miqdori bo'yicha aniqlangan natijalar me'yoriy qiymatlardan jiddiy farq qilmadi. Guruhlararo solishtirish natijalariga ko'ra, tadqiqotning uchinchi bosqichida uchinchi guruh bilan birinchi va ikkinchi guruhlar orasida statistik jihatdan ahamiyatli tafovut kuzatildi. Bu tafovut fibrinogen darajasining pasayish tendensiyasi bilan namoyon bo'ldi. Gemostaz tizimining biokimyoviy ko'rsatkichlari dinamikasi intensiv terapiya bosqichlarida o'tkazilgan kuzatuvlar asosida 2-jadvalda

ko'rsatilgan.

1-jadval

Ko'rsatkich	Gurux	Tadqiqod bosqichlari		
		1	2	3
Ar, nis/bir.	I	-7,45 ± 1,33 ^{^*}	-6,13 ± 0,94 [*]	-5,95 ± 0,72 ^{^^^*}
	II	-9,36 ± 1,32 [^]	-7,13 ± 1,12 ^{**}	-6,90 ± 1,47 ^{^^^**}
	III	-10,37 ± 1,92 ^{^***}	-4,75 ± 0,88 ^{***}	-4,62 ± 1,06 ^{^^^***}
r, daqiqa	I	4,35 ± 1,54 [^]	5,57 ± 1,08 [*]	5,81 ± 0,97 ^{^^^}
	II	4,06 ± 1,04	4,59 ± 1,39 ^{**}	5,39 ± 1,11 ^{^^^**}
	III	3,97 ± 1,11 [^]	7,16 ± 0,73 ^{***}	7,08 ± 1,19 ^{^^^***}
k, daqiqa	I	3,95 ± 1,13 ^{^*}	4,83 ± 0,76 [*]	5,09 ± 0,61 ^{^^^*}
	II	3,07 ± 1,16	3,08 ± 0,86 ^{^^^**}	3,73 ± 1,16 ^{^^^**}
	III	3,42 ± 1,05 [^]	6,12 ± 0,71 ^{***}	6,12 ± 0,68 ^{^^^***}
T, daqiqa	I	39,90 ± 13,40	42,80 ± 10,30	45,80 ± 9,79
	II	33,30 ± 12,00 [^]	41,60 ± 11,90 ^{**}	43,40 ± 9,07 ^{^^^**}
	III	28,30 ± 12,10 [^]	64,30 ± 7,97 ^{***}	64,80 ± 6,60 ^{^^^***}
Am, nis/bir.	I	811,30 ± 62,40 [^]	710,20 ± 67,50 [*]	686,00 ± 67,70 ^{^^^*}
	II	843,80 ± 92,50	850,90 ± 67,50 ^{**}	845,00 ± 87,30 ^{**}
	III	787,10 ± 51,50	746,60 ± 36,30 ^{^^}	644,50 ± 24,10 ^{^^^}
F, %	I	19,70 ± 4,02	18,70 ± 2,090	20,00 ± 2,49
	II	19,60 ± 3,15	19,00 ± 2,34 ^{^^}	21,20 ± 2,59 ^{**}
	III	20,20 ± 2,79	21,50 ± 4,07	25,90 ± 4,49 ^{^^^***}

Eslatma. Ushbu joyda hamda 2–4-jadvallarda quyidagi belgilar izoh sifatida keltiriladi: * – p < 0,05 bo'lganda tadqiqot bosqichida I va II guruh ko'rsatkichlarini solishtirishda aniqlangan farqni bildiradi; – p < 0,05 holatida II va III guruh ko'rsatkichlari orasida qayd etilgan tafovutni anglatadi; * – p < 0,05 qiymati I va III guruhlar o'rtasidagi farqni ifodalaydi. [^] belgisi tadqiqotning 1 va 2-bosqichlari orasidagi ko'rsatkichlarni, ^{^^} belgisi 2 va 3-bosqichlar orasidagi natijalarni, ^{^^^} belgisi esa 1 va 3-bosqichlar orasidagi statistik farqni bildiradi (p < 0,05).

2-jadval

Ko'rsatkich	Gurux	Tadqiqod bosqichlari		
		1	2	3
Trombotsitlar, 109/l	I	279,0 ± 33,9	274,5 ± 26,3	266,6 ± 38,1
	II	280,9 ± 54,9	272,4 ± 59,2	270,0 ± 43,0 ^{**}
	III	248,5 ± 49,0	226,6 ± 60,1 ^{^ ^}	159,2 ± 52,1 ^{^^^***}
PN, nisb.	I	1,02 ± 0,01	1,02 ± 0,01	1,02 ± 0,02
	II	1,02 ± 0,02	1,03 ± 0,02	1,03 ± 0,02
	III	1,02 ± 0,03	1,03 ± 0,03	1,03 ± 0,04
FQTB, s	I	1,07 ± 3,13	31,62 ± 3,16	32,42 ± 2,43
	II	31,33 ± 2,37	31,31 ± 1,97 ^{^^}	33,95 ± 2,74 ^{^^^}
	III	30,6 ± 1,78 [^]	34,65 ± 5,64	40,32 ± 9,05 ^{^^^***}
Umumiy fibrinogen, g/l	I	3,82 ± 0,82	3,63 ± 0,74	3,74 ± 0,66
	II	3,44 ± 1,01 [^]	4,07 ± 0,68 ^{**}	3,85 ± 0,62 ^{**}
	III	03,28 ± 0,63	3,12 ± 0,62	2,98 ± 0,29 ^{***}

SAB va DAB ko'rsatkichlari tadqiqotning barcha bosqichlarida ham guruhlar o'rtasida, ham har bir guruh ichida solishtirilganda statistik jihatdan ahamiyatli farqlarni namoyon etmadi. Yurak urish tezligini o'rganishda I va III, II va III guruhlar o'rtasida statistik jihatdan muhim farqlar (yurak urish tezligining oshishi) aniqlandi, bu ehtimol, organizmning yallig'lanishga ko'proq javob berishi bilan izohlanishi mumkin. Intensiv terapiya bosqichlarida o'rganilayotgan guruhlarda qon aylanish ko'rsatkichlarining dinamikasi 3- jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Ko'rsatkich	Gurux	Tadqiqod bosqichlari		
		1	2	3
SAB, mm.rt. ust	I	117,5 ± 9,8	119,3 ± 8,7	119,5 ± 8,1
	II	120,0 ± 11,2	121,5 ± 11,3	122,5 ± 11,8
	III	111,8 ± 9,9	113,1 ± 9,6	113,1 ± 10,3
DAB, mm.rt. ust	I	077,2 ± 7,5	77,2 ± 9,0	76,5 ± 6,2
	II	080,0 ± 8,6 ^{***}	75,6 ± 9,7	78,4 ± 6,7 ^{**}
	III	73,7 ± 6,4	71,2 ± 6,4	71,8 ± 5,3
YuQS, zarba/ daqiqqa	I	85,4 ± 7,2	83,8 ± 6,1	83,2 ± 6,2
	II	86,2 ± 6,5 ^{**}	85,5 ± 6,1 ^{**}	85,6 ± 5,2 ^{**}
	III	93,1 ± 2,3 ^{***}	91,7 ± 5,0 ^{***}	92,2 ± 5,9 ^{***}

O'rtacha massali molekulalar (O'MM) darajasi uchinchi bosqich III guruhda ko'tarilgan va ishonchiligi I va II guruhlardan farq qilgan. Aksincha O'MM leykotsitlar intoksikatsiya indeksi (LII) ikki guruhni (I va III) faqat tadqiqotning birinchi bosqichida taqqoslashda statistik jihatdan muhim farqqa ega edi. Endogen intoksikatsiya ko'rsatkichlarining dinamikasi 4- jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Ko'rsatkich	Gurux	Tadqiqod bosqichlari		
		1	2	3
O'MM nisb. bir	I	0,31 ± 0,03	0,29 ± 0,03	0,28 ± 0,02 ^{^^^}
	II	0,31 ± 0,02	0,29 ± 0,03	0,29 ± 0,02 ^{**}
	III	0,31 ± 0,03	0,29 ± 0,02	0,30 ± 0,02 ^{***}
LII, bir.	I	4,9 ± 2,2	4,1 ± 2,4	4,3 ± 1,7
	II	7,0 ± 3,7	5,3 ± 0,6	5,4 ± 2,9
	III	8,6 ± 3,5 ^{***}	7,6 ± 4,7	6,9 ± 3,8

Kasallikning kechishi va natijasining keyingi tahlili shuni ko'rsatdiki, I guruh bemorlari peritonit terapiyasiga etarli darajada ta'sirlanishdi va ularning hech birida multiorganli disfunktsiya (MOD) (POYeS) rivojlanish belgilari qayd etilmagan.

Ikkinchi va uchinchi guruhlarga mansub bemorlarda mos ravishda 10 foiz va 50 foiz holatlarda poliorgan yetishmovchiligi sindromi (POYeS) rivojlanishi kuzatildi, bu esa keyinchalik davolash jarayonini olib borish strategiyasini o'zgartirish zaruratini keltirib chiqardi.

Xulosalar.

1. Peritonit hamda abdominal sepsis bilan og'rikan bemorlarning gemodinamik ko'rsatkichlari va endogen intoksikatsiya darajasi mazkur patologik holatda POYeS rivojlanishini erta aniqlash uchun yetarli diagnostik ahamiyatga ega emas.

2. Tadqiqotda o'rganilgan tavsiflovchi parametrlar tahliliga ko'ra, operatsiyadan keyingi birinchi kunning oxiriga qadar olib borilgan intensiv davolash bosqichlarida abdominal sepsisli bemorlarda gemostaz va fibrinoliz tizimlarining funksional holatini baholash natijalari POYeS rivojlanish eh

3. Peritonit tashxisi qo'yilgan bemorlarda gemostaz tizimining turli tarkibiy qismlarining funksional holatini o'rganish natijasida koagulyatsion gemostaz tizimining qorin bo'shlig'i infeksiyasiga javob reaksiyasining uch xil turi aniqlangan. Birinchi turi — qulay holat, bunda tizimli yallig'lanish javobi sindromining (TYaRS) ikki yoki undan kam belgisi kuzatilgan hamda poliorgan yetishmovchiligi sindromi (MOD yoki POYeS) rivojlanmagan. Ikkinchi turi — shubhali holat, bu holda ham TYaRS belgilarining soni ikki yoki undan kam bo'lgan, biroq 10 foiz bemorlarda MOD (POYeS) rivojlanishi qayd etilgan. Uchinchi turi — noqulay holat, bunda TYaRS belgilarining ikki yoki undan ortig'i kuzatilib, abdominal (peritoneal) sepsis bilan birga 50 foiz bemorlarda MOD (POYeS) rivojlanishi aniqlangan.

List of references

[1] Александрович Ю.С., Иванов Д.О., Павловская Е.Ю., Пшениснов К.В., Земляной Д.А. Клинико-лабораторные признаки полиорганной дисфункции у новорожденных с внутриамниотической инфекцией: проспективное наблюдательное исследование. Вестник интенсивной терапии имени А.И. Салтанова. 2023;(3):137–148. doi:10.21320/1818-474X-2023-3-137-148.

[2] Алимова Х.П., Мустакимов А.А., Алибекова М.Б. Полиорганная недостаточность у де-

тей: критерии диагностики, патофизиология и прогноз. Вестник экстренной медицины. 2019; 6: 92–97. [Alimova N.P., Mustakimov A.A., Alibekova M.B. Multiple organ failure in pediatric: diagnostic criteria, pathophysiology and prognosis. Bulletin of Emergency Medicine/ Vestnik Ekstrennoy Meditsiny. 2019; 6: 92–97. (in Russ.)].

[3] Вилков И.И., Блинова М.М. Сепсис: полиорганная недостаточность у больного сахарным диабетом. Пульмонология. 2022;32(2):281-284. <https://doi.org/10.18093/0869-0189-2022-32-2-281-284>

[4] Голомидов А.В, Григорьев Е.В, Мозес В.Г, Мозес К.Б. Патогенез, прогнозирование и исходы синдрома полиорганной недостаточности у новорожденных (обзор). Общая реаниматология. 2022; 18 (6): 37–49. <https://doi.org/10.15360/1813-9779-2022-6-37-49> [На русск. и англ.]

[5] Шарипова В.Х., Алибекова М.Б., Рахимова С.Р. (2021). ПОКАЗАТЕЛИ ИММУНОГРАММЫ ПРИ ПОЛИОРГАННОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ У ДЕТЕЙ. Детская медицина Северо-Запада, 9(1), 405. Получено с <https://ojs3.gpmu.org/index.php/childmed/article/view/2909>.

[6] Khemani RG, Smith L, Lopez-Fernandez YM, et al. ; Pediatric Acute Respiratory Distress syndrome Incidence and Epidemiology (PARDIE) Investigators: Paediatric acute respiratory distress syndrome incidence and epidemiology (PARDIE): An international, observational study. *Lancet Respir Med* 2019; 7:115–128 [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]

[7] Туппо KV, Petersen NJ, Hallman DM, Markovitz BP, Mariscalco MM. Day 1 multiple organ dysfunction syndrome is associated with poor functional outcome and mortality in the pediatric intensive care unit. *Pediatr Crit Care Med.* (2020) 10:562–70. doi: 10.1097/PCC.0b013e3181a64be1

[8] Scott HF, Colborn KL, Sevick CJ, et al. Development and validation of a predictive model of the risk of pediatric septic shock using data known at the time of hospital arrival. *J Pediatr.* 2020;217:145-151.e6. doi: 10.1016/j.jpeds.2019.09.079 [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]

[9] Proulx F, Fayon M, Farrell CA, Lacroix J, Gauthier M. Epidemiology of sepsis and multiple organ dysfunction syndrome in children. *Chest.* (2022) 109:1033–7. doi: 10.1378/chest.109.4.1033

Article/Original paper

RISK FACTORS FOR THE DEVELOPMENT AND FEATURES OF THE COURSE OF URATE NEPHROPATHY IN FREQUENTLY ILL CHILDREN

N.F.Nurmatova¹  U.B.Nurmatov¹ *1. Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan.*

Abstract.

Objective: To determine the prevalence, risk factors, and clinical features of urate nephropathy (UN) in frequently ill children (FIC). **Materials and Methods:** The study was conducted at the multidisciplinary clinic of Tashkent State Medical University, in the Department of Pediatric Nephrology, during the period from 2022 to 2024. At Stage I, a retrospective, in-depth analysis of the medical records of 1,323 children aged 3 to 12 years who received inpatient treatment was carried out. At Stage II, a comprehensive clinical examination was conducted on 120 children with a confirmed diagnosis of UN. **Results:** Among frequently ill children, diseases of the urinary system, including urate nephropathy, occur significantly more often than in healthy children. In FIC, UN is commonly associated with background diseases such as tonsillitis, bronchitis, gastroduodenitis, and others, and is characterized by marked seasonality. The main risk factors for the development of the disease include maternal comorbidities, which may increase the likelihood of kidney tissue pathologies in the child in the future. In children with UN, clinical manifestations show age-specific features depending on the developmental stage of the child. **Conclusion:** To prevent complications of urate nephropathy in frequently ill children, early detection of urate metabolism disorders and timely correction are essential.

Key words: frequently ill children, urate nephropathy, clinical features, risk factors.

Bolalar nefrologiyasi pediatriyaning tez sur'atlarda rivojlanayotgan va katta klinik ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Buyrak kasalliklari bolalar orasida yuqori tarqalishi, ularning asoratlari va surunkali buyrak yetishmovchiligiga olib kelishi mumkinligi bu sohani juda muhimligini ko'rsatadi [4,8]. Epidemiologik ma'lumotlarga ko'ra: bolalarda har xil nefropatiyalar (tubulopatiya, glomerulonefrit, urat va oksalat nefropatiyalar, pielonefrit) 10–20% hollarda qayd etilgan. Shuningdek, har yili dunyo bo'yicha bolalarning taxminan 3–5% ida buyrak funktsiyasi bilan bog'liq muammolar aniqlanadi. Surunkali buyrak kasalliklari bilan og'rikan bolalarning 30–50% i katta yoshga kelganda gemodializ yoki transplantatsiyaga muhtoj bo'ladi [25,26].

Uratli nefropatiya kasalligi — siydik kislota va uning tuzlari (uratlar)ning buyrak to'qimalarida to'planishi bilan bog'liq bo'lgan tubulointerstitsial patologiya bo'lib, u ko'pincha giperurikemiya natijasida rivojlanadi [1,2,3,]. An'anaviy ravishda bu kasallik yoshi kattalarda ko'proq uchrasa-da, so'nggi yillarda bolalar va o'smirlar orasida ham uning uchrashi oshib bormoqda. Bu holat pediatriya va nefrologiya sohalarida ushbu muammoning dolzarbligini oshiradi [5, 16, 17].

Bolalarda urat nefropatiyasining o'sishi asosan bir qator omillarga bog'liq: global semirishning ko'payishi, metabolik sindrom va insulinga qarshilikning tarqalishi, purinlarga boy ovqatlarning ko'p iste'moli, shuningdek jismoniy faollikning pasayishi [6,9,21]. Shunday qilib, hayot tarzi va ovqatlanish odatlarining o'zgarishi kasallikning epidemiologiyasini o'zgartirmoqda. Shuningdek, urat nefropatiyasi genetik omillar, hamda ba'zi gematologiya va onkologiya kasalliklari fonida (xususan, tumor lizisi sindromida) ham yuzaga kelishi mumkin.

Giperurikemiya ko'pincha purin almashinuvining buzilishi yoki siydik kislota chiqarilishining pasayishi bilan bog'liq [7,12,14,15,24]. Bolalarda bu holat semirish, metabolik sindrom va genetik omillar bilan bog'liq hollarda uchraydi [11,22,23].

Gematologik kasalliklar va ximoterapiya urat nefropatiyasining eng tez kuzatiladigan ikkinchi

darajali sabablaridan hisoblanadi, ayniqsa tumor lysis sindromida [10,13]. Bolalarda kasallik klinik alomatlarini odatda sezilarsiz bo'lib, shuning uchun erta diagnostika qiyinchilik tug'diradi [19].

Diagnostikada siydik kislotasi darajasi, buyraklarning ultratovushli tekshiruv va siydik tahlillari muhim ahamiyatga ega [20]. Davolashda esa dietik choralar, suv miqdorini ko'paytirish va dori vositalari qo'llaniladi [18]. Bolalarda bu jarayon alohida e'tiborni talab qiladi. Shu bilan birga, urat nefropatiyasi bolalarda boshqa metabolik va nefrologik kasalliklarning ko'pincha murakkablantiruvchi sababi bo'lib qolmoqda, shuning uchun uning profilaktikasi va davolashi mukammal tashkil etilishi lozim. E'tibor berilishi kerak bo'lgan yana bir jihati — bolalar va ularning oilalariga bu kasallik haqida keng ma'lumot berish va profilaktik choralar haqida tushuntirishlar o'tkazishdir.

Tadqiqot maqsadi - tez-tez kasallanuvchan bolalarda uratli nefropatiya kasalligini uchrashi, havf omillari va kechish xususiyatlarini aniqlash

Material va tekshirish usullari. Ushbu tadqiqot Toshkent davlat tibbiyot universitetining ko'p tarmoqli klinikasida Bolalar nefrologiyasi bo'limida 2022-2024 yillar davomida statsionar sharoitda davolangan 1323 ta 3-12 yoshli bolalar (I bosqich) kasallik tarixi retrospektiv chuqur tahlil qilinib, hamda UN kasalligi bilan 120 nafar bemor bolalarda (II bosqich) tekshiruv o'tkazildi.

Tahlil natijasida bemor bolalarning yoshi, jinsi, kasallikning o'tkir yoki surunkali formalari, bolalarning tez-tez kasallanish chastotasi, hamda tez-tez kasallanuvchi bolalarda uratli nefropatiyalarning uchrash darajasi, ulardagi yondosh patologiyalar yillar kesimida o'rganildi, taqqoslandi.

Barcha bemorlarda uratli nefropatiya klinik tashhisi va yondosh kasalliklari anamnez ma'lumotlari, kasallik rivojlanishiga olib keluvchi ichki va tashqi omillarni sinchiklab o'rganish va klinik laborator, biokimyoviy, immunologik va funktsional tekshiruv natijalarini MKB-10 kasalliklar klassifikatsiyasi mos xolda umumlashtirish asosida tashxis quyildi. Tashxis quyishda bolalardagi nefropatiya klassifikatsiyasidan foydalanildi (M.S. Veltishev va b. 1989y.). Nesterova I.V. (2004) klassifikatsiyasiga ko'ra, interkurrent patologiyali kasalliklar (O'RK, O'RVI, angina) chastotasi yil davomida 3-6 yoshda 4-6 martadan ko'p; 7-12 yoshda esa 3 va undan ortiq uchrashi tez-tez kasallanuvchi bolalar guruhiga kiritiladi. Olingan natijalarga ko'ra, tez-tez kasallanuvchan bolalarda interkurrent kasalliklar chastotasi yil davomida 8 dan 10 martagacha uchragan, kasallik davomiyligi 1-2 hafta va undan ortiq davom etganligi aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra 1-bosqich bemorlarimizning 67,0 % (886 nafar) o'g'il bolalar, 33,0% esa (437 nafar) qiz bolalar tashkil qildi. Bemor bolalar guruhlariga ko'ra ham taqsimlandi. Bolalarning o'rtacha yoshi 10yo2,4 yoshni tashkil qildi. Tibbiy tekshiruvlardan o'tgan bolalar anatomik va fiziologik xususiyatlariga qarab quyidagi guruhlarga bo'lindi: maktabgacha yoshdagi bolalar 3-6 yosh – 534 nafar (40,4%), (o'g'il bolalar 29,1%, qiz bolalar – 11,3%), maktab yoshidagi bolalar 7-12 yosh – 789 nafar (59,6%) (o'g'il bolalar – 37,9%, qiz bolalar – 21,7%) ni tashkil qildi.

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida nefropatiyalik bolalar va ularning oilalariga tibbiy-ijtimoiy gigienik tavsif berildi. Bemor bolalarning genologik, biologik va ijtimoiy anamnez o'rganildi. Shu bilan birga, ota-onalarga tibbiy va ijtimoiy anamnez bo'yicha savollar berildi: oila tarkibi, yashash sharoiti, zararli odatlar, oiladagi kasalliklar, oilada va qarindoshlarda buyrak va metabolik patologiyalar mavjudligi, kasallikning anamnezi va davomiyligi, qaytalanish tezligi, ekstrenenal va buyrak kasalliklari belgilarining ko'rinishi ham aniqlandi. Buning uchun dallilarga aoslangan tibbiyotning analitik usullaridan bir hodisa nazorat usulidan foydalanildi. Buning uchun 120 ta uratli nefropatiya bilan kasallangan bolalar (asosiy guruh), hamda 67 nafar analogik sharoitda istiqomat qiluvchi buyrak kasalliklari bilan kasallanmagan bolalar (nazorat guruhi) va ularning oilalari tanlab olindi.

Natijalar va ularning muhokamasi.

Retrospektiv tahlil natijasida jami 3-12 yoshli bolalar orasida siydik ayiruv tizimi patologiyasi bo'lgan bolalar ulushi o'rganilgan yillarda bir xil darajada uchraganligi (34,0; 34,0; 32,0%) qayd etildi, biroq tez-tez kasallanuvchan bolalar orasida bu ko'rsatkichlar qariyb 1,5 barobarga yuqoriligi aniqlandi.

Ma'lumki, TTKBni asosiy qismini fon patologiyasi bilan uchraydigan bolalar (diatezlar, allergiya, anemiya va boshq) tashkil etadi. Ular orasida asab-artritik diatez bilan xarakterlanadigan purin almashinuvi buzilishi, ajratilgan siydik sindromi, metabolik kasalliklarga va surunkali patologiyalar


shakllanishiga, ya'ni siydik tosh kasalligi, urolitiaz, podagra va boshqalarga yuqori irsiy moyillikka ega bo'lgan TTKBlarni kuzatdik. Shuningdek, o'smirlik davridagi TTKBdagi uraturiya chastotasi o'rganildi. Bunda TTKBdagi uraturiya chastotasi 2023 yilda yuqori ko'rsatkich 38,0%, 2022 va 2024 y. esa mos ravishda 29,0%; 33,0% da kuzatildi. O'smirlik davridagi TTKBlarda uraturiya kechishi ko'prok o'rta og'ir va og'ir darajali, xamda asoratlangan va uzoq muddatli kechishi bilan ($p < 0,001$) xarakterlandi.

2022-2024 yillar davomida 3-12 yoshli bolalarda uratli nefropatiyasi bo'lgan TTKBda yondosh patologiyalar tahlilida shu aniqlandi: 30,4% tonzillit, 6,5% otit, 16,2% bronxit, 9,8% gastroduodenit va 13,8% qaytalanuvchi laringotraxeit uchradi.

Ma'lumki, siydik ayiruv tizimi patologiyalari rivojlanishiga asosan tashqi muhit omillari, viruslarning organizmga ta'siri, bakteriyalar, dori vositalar, tabiat hodisalarining asoratlari, iqlim o'zgarishi, ovqatlanish xarakteri va boshqalar asosiy rol uynaydi. Olingan natijalardan siydik ayiruv tizimi patologiyasi bilan kasallanish hamda kasallik tufayli gospitalizatsiya qilish mavsumiy xarakterga ekanligi aniqlandi. Xususan, 2022-2024 yillar fevral, aprel, avgust va dekabr oylarida faslga xos mavsumiylik aniqlandi. Umumiy guruhda (3-12 yoshda) siydik ayiruv tizimi patologiyasi bilan kasallanish gospitalizatsiyasining eng yuqori ko'rsatkichi quyidagiga teng ekanligi qayd qilindi: 2022 y – aprel - 9,9%, dekabr - 9,9%; 2022 y: avgust - 9,9%, dekabr - 10,0%; 2024 y: aprel- 10,7%, avgust - 11,6%. TTKBda (1-7 yosh) 2022 y: fevral - 10,2%, dekabr - 11,8%; 2023y: fevral - 10,5%, aprel -13,0%; 2024y: fevral - 10,0%, aprel - 11,2%.

Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, siydik ayiruv tizimi patologiyali bolalar O'zbekiston Respublikasi sharoitida xududga xos kechishi, bolalarni fasliy gospitalizatsiyasi ko'pincha TTKBlarda yaqqol kechganligi aniqlandi. Bu holatda olimlar shuni ta'kidlashadiki, TTKBda bolalarni atrof muhitga optimal moslashish uchun immun tizimida zo'riqish kuzatiladi, bunda butun rezerv immunitet ham yetarlicha ishlay olmaydi.

Siydik ayiruv patologiyasi bo'lgan uraturiyali o'smir yoshdagi TTKBda 2022-2024 yillar davomida kasallik kechishi va tarqalishida ularning yoshiga qarab o'ziga xosligi aniqlandi. Bu holat quyidagicha: 2022 yilda surunkali pielonefrit (8,4%), enurez (7,5%); 2023 y - surunkali pielonefrit (5,8%), dismetabolik nefropatiya (7,2%), enurez (4,3%); 2024 y - surunkali pielonefrit (4,1%), dismetabolik nefropatiya (4,1%), surunkali glomerulonefrit (3,3%) uchradi.



1-rasm. Uraturiyali o'smir yoshdagi bolalarda siydik ayiruv tizimi patologiyalari uchrashi (%).

Tadqiqotning keyingi bosqichida 120 nafar Uratli nefropatiya tashxisi bilan statsionar sharoitda davolanayotgan bemor bolalarda yosh-jins bo'yicha tahlil qildik. Tahlil natijasiga ko'ra o'g'il bolalar (67,5%) qiz bolalarga (32,5%) nisbatan deyarli 2 barobar ko'p uchradi. Shuningdek, tekshirilayotgan gurux bolalar kontingentini jins va yosh bo'yicha o'rganganimizda, asosan 7-12 yoshli bolalar 68,3% ni tashkil qildi. Shulardan 48,3% ni o'g'il bolalar, 20,0% ni qiz bolalar aniqlandi. 3-6 yoshli bolalar esa

31,7% ni, shulardan 19,2% ni o'g'il bola, 12,5% ni qiz bola tashkil qildi.

Demak, 7-12 yoshdagi o'g'il bolalarda qiz bolalarga qaraganda deyarli 2 baravar kuproq uchrashi bu davrdagi gormonal o'zgarishi bilan bog'liqdir. Qizlardagi estrogenlar siydik kislotani organizmdan chiqarilishiga ta'sir qiladi, bu fakt adabiyotlarda tasdiqlangan [4,6,7]. O'g'il bolalarda esa bu ximoya mexanizmi bo'lmaydi, shu sababli siydik kislota yuqoriligicha qoladi. Bundan tashqari bu davrda o'g'il bolalarda tana massasi indeksi ortib, metabolik sindrom rivojlanish xavfini oshiradi, bu esa giperurikemiya rivojlanishini kuchaytiradi. Shuningdek, UN rivojlanishi nasliy moyillikka ham bog'liqdir, chunki purin almashinuv defekt holatlari asosan o'g'il bolalarda uchraydi, chunki bu defektlar asosan X-xromosomaga birikkan bo'ladi [3,7].

Pediatr nefrolog tadqiqotchilar kuzatuvlarida nefrologik anamnez og'ir kechgan onalarning bolalarda buyrak patologiyasi ko'p uchrashi, hamda o'smirlik yoshidagi qizlarda siydik ayiruv infeksiyasi uchrash chastotasi tasdiqlangan. Shunga asoslanib, biz uratli nefropatiya bilan kasallangan bolalarni onalarini homiladorlik davridagi kasallik tarixidagi anamnestik ma'lumotlarni o'rgandik (jadval 1). Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, asosiy guruxdagi bolalar onalarida preeklampsiya/gestoz, arterial gipertenziya holati, taqqoslama guruhga nisbatan ishonchli yuqori ko'rsatkich aniqlanib (21,7yo3,8 va 6,0yo2,6%, $r < 0,01$), erta tug'ilish holati ham deyarli 3 barobar ko'p kuzatildi (35,0yo4,4 va 11,9yo4,0%), $r < 0,01$. Bu esa xomiladagi nefron zahirasi pasayishi buyraklarning postnatal disfunktsiya xavfini oshirib, siydik kislota almashinuv buzilishi bilan bog'liqligi bilan tushuntirishimiz mumkin.

1-jadval

Urutli nefropatiya bilan kasallangan bolalar onalarida hamroh patologiyalari uchrash chastotasi (%)


	TKB (n=67), %	TKB+UN, % (n=120)	r
Preeklapsiya/gestoz, arterial gipertenziya	6,0±2,6	21,7±3,8	<0,01
Erta tug'ilish	11,9±4,0	35,0±4,4	<0,05
Qandli diabet	10,4±3,8	27,5±4,1	<0,05
Buyrak surunkali kasalliklari (PN, GN)	7,5±3,2	25,8±4,0	<0,05
Semizlik, metabolik sindrom	11,9±4,0	30,8±4,2	<0,05
Onadagi infeksiyon kasalliklar (TORCH va b.)	17,9±4,7	29,2±4,2	<0,05
Autoimmun asalliklar	3,0±2,1	8,3±2,5	<0,05

Shuningdek, bolaning erta tug'ilish xavfiga onadagi qandli diabet, semizlik va metabolik sindrom ham olib kelishi mumkin. Uratli nefropatiya bilan kasallangan bolalarning onalarida bu holat solishtirma guruhdagilarga nisbatan deyarli 2 va 3 barobar ko'pligini aniqladik (27,5±4,1 va 10,4±3,8%, hamda 30,8±4,2 va 11,9±4,0%), $p < 0,05$. Bunda ona organizmda metabolik jarayon buzilishi zardobli siydik kislota ortishiga, hamda xomilada oksidlanish stressiga sabab bulib, nefropatiya rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari tekshirilayotgan asosiy guruh bola onalarida buyrak surunkali kasalliklari (25,8±4,0%), ba'zi infeksiyon kasalliklar (TORCH va b.) (29,2±4,2%), autoimmun kasalliklar (8,3±2,5%) ham aniqlandi, $p < 0,05$ solishtirma guruxga nisbatan. Onaning kuchli preparatlar qabul qilish (tsitostatik, diuretikla va b.) holatlari ham asosiy guruh bemorlarda ishonchli darajada farqlandi (14,5±3,9 va 3,0±2,1%, $p < 0,05$), bu esa bu preparatlarning nefrotoksik ta'siri, ya'ni xomilada siydik ajratuv tizimini to'g'ridan to'g'ri zararlanishiga, hamda buyrak funksiyasining buzilishiga olib keladi.

Taqdim etilgan ma'lumotlarga asoslanib, bolalarda urat nefropatiya rivojlanishining asosiy xavf omillari onadagi preeklapsiya/gestoz, arterial gipertenziya, metabolik kasalliklar hisoblanadi. II turdagi diabet va semizlikda UN rivojlanishi giperurikemiya bilan bog'liq bo'lib, bu bolalarning buyraklarida urat kristallarining shakllanishiga yordam beradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, surunkali yallig'lanish va autoimmun kasalliklar kelajakdagi chaqaloqlarda buyrak to'qimalari patologiyalarini rivojlanish xavfini oshirishi mumkin. Onada irsiy buyrak kasalliklarining mavjudligi, shuningdek, bolada urat konlari bilan nefropatiya rivojlanish ehtimolini oshiradi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va yosh bolalarda urat nefropati rivojlanishining oldini olish uchun shunga o'xshash tashxis qo'yilgan homilador ayollarni

boshqarishda ushbu ma'lumotlarni hisobga olish muhimdir. Shunday qilib, olingan tahlil natijasiga kura, TTKB uzoq vakt kuzatuv zarurligi, TTKB va o'smirlarning siylik ayiruv tizimi patologiyasi kuzatuvini oila shifokorlari, UASh, terapevtlar tomonidan kasallikni profilaktikasi va davolash-diaagnostika chora tadbirlarini ishlab chiqish lozim.

Tadqiqotimizning keyingi bosqichida biz bolalarda uratli nefropatiya rivojlanishida o'ziga xos klinik belgilarni bolaning yoshiga qarab o'ziga xos xususiyatlarini o'rgandik (2-rasm). Uratli nefropatiyalii bolalarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda – 3-6 yoshda asosiy klinik belgilari bo'lib uratli kristalluriya (84,2%) va siydik rangining o'zgarishi (44,7%) bo'lib, ko'pincha tasodifiy aniqlanadi, bu klinik belgilar esa o'smirlilik davrda nisbatan kamroq uchradi. 36,8% va 26,3% hollarda dizuriya va siydik yo'llari infeksiyalari qayd etildi. Bunda qorin yoki beldagi yaqqol og'riqlar (18,4%) mikrogematuriya (13,1%), proteinuriya (7,8%) holati ham kam uchradi, nefrolitiaz esa bu davrda hali shakllanmadi. Bu ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, UN kasalligining erta bosqichida boshqa tizimli o'zgarishlarsiz faqatgina "siydik sindromi" sifatida namoyon bo'ladi.



2-rasm. Bolalarda uratli nefropatiyaning klinik belgilarining yoshga ko'ra tavsifi.

Izoh: jadvalda statistik ishonchligi mavjud ko'rsatkichlar keltirilgan, *-p<0,05.

Maktab yoshidagi bolalarda – 7-12 yoshda uratli nefropatiya klinik ko'rinishi yanada yorqinroq va xilma-xilligi bilan ajratib turadi. Kristalluriya holati 3-6 yoshdagi bolalarda qaraganda deyarli bir xil darajada saqlanib qoladi (75%), shuningdek bel va qorindagi og'riq holatlari, mikrogematuriya va proteinuriya ko'proq uchradi, va 3g'6 yoshli bemorlarga nisbatan ishonchli farq aniqlandi (p<0,05). Taxminan har 10 ta bolaning birida uratli nefrolitiaz rivojlanadi, bu esa kasallikning yoshga ko'ra progressiyasini ko'rsatadi. Pubertat davrda deyarli 24,4% bolalarda metabolik sindrom belgilari – semizlik, arterial gipertenziyani kuzatishimiz mumkin. Bu esa giperurikemiyaninguglevod va lipid almashinuvi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Podagra o'xshash bo'g'im og'riqlari ham nisbatan kam uchragan bo'lsa ham (18,3%) keyinchalik klinik manzaraning og'irlashishiga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda uratli nefropatiya kasalligi asosan asimptomatik kristalluriya va dizuriya epizodlari bilan kechadi. Maktab yoshidagi bolalarda esa og'riq sindromi, nefrolitiaz va metabolik buzilishlar yetakchi o'rinni egallaydi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish lozimki, kasallikning og'irlashuvini oldini olish uchun uratli almashinuv buzilish holatini erta aniqlash va o'z vaqtida korreksiya qilish lozim.

Xulosalar.

1. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tez-tez kasallanuvchi bolalar orasida siydik ayiruv tizimi

kasalliklari, ayniqsa uratli nefropatiya, sog'lom bolalarga nisbatan sezilarli darajada ko'p uchraydi. Uratli nefropatiya tez-tez kasallanuvchi bolalarda fon kasalliklari (tonzillit, bronxit, gastroduodenit va boshqalar) bilan birga uchrashi hamda mavsumiy xususiyatga egaligi bilan xarakterlanadi. Bu esa uratli nefropatiyaning profilaktika va davolash choralarini amalga oshirishda mavsumiy omillarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

2. Bolalarda urat nefropatiya rivojlanishining asosiy xavf omillari onadagi preeklapsiya/gestoz, arterial gipertenziya, metabolik kasalliklar hisoblanadi. II turdagi diabet va semizlikda UN rivojlanishi giperurikemiya bilan bog'liq bo'lib, bu bolalarning buyraklarida urat kristallarining shakllanishiga yordam beradi. Shuni ham ta'kidlash joizki, surunkali yallig'lanish va autoimmun kasalliklar kelajakdagi chaqaloqlarda buyrak to'qimalari patologiyalarini rivojlanish xavfini oshirishi mumkin. Onada irsiy buyrak kasalliklarining mavjudligi, shuningdek, bolada uratli nefropatiya rivojlanish ehtimolini oshiradi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va yosh bolalarda urat nefropati rivojlanishining oldini olish uchun shunga o'xshash tashxis qo'yilgan homilador ayollarni boshqarishda ushbu ma'lumotlarni hisobga olish muhimdir.

3. Bolalarda uratli nefropatiya rivojlanishida klinik belgilarni bolaning yoshiga qarab o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Maktabgacha bo'lgan yoshdagi bolalarda uratli nefropatiya kasalligi asosan asimptomatik kristalluriya va dizuriya epizodlari bilan kechadi. Maktab yoshidagi bolalarda esa og'riq sindromi, nefrolitiaz va metabolik buzilishlar yetakchi o'rinni egallaydi. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish lozimki, kasallikning og'irlashuvini oldini olish uchun uratli almashinuv buzilish holatini erta aniqlash va o'z vaqtida korrektsiya qilish lozim.

List of references

- [1] Абдуллаева М.М., Рахимов Ш.К. Особенности течения уратной нефропатии у детей с фоновыми инфекциями. Вестник педиатрии. 2023; 12(1):34-39.
- [2] Алейников В.Е., Бровкина С.А. Особенности течения уратной нефропатии у детей с хроническими воспалительными заболеваниями. Педиатрический журнал. 2020; 15(4):22-28.
- [3] Алиев А.А., Саидов Р.Р. Уратная нефропатия у детей: факторы риска, диагностика, лечение. Журнал Российской детской нефрологии. 2022; 8(2):50-56.
- [4] Закирова У.И., Нурматова Н.Ф., Хабибуллаева Б.Р. Диагностическая роль цитокинового профиля при хроническом пиелонефрите у детей: дис- Application of high innovative ..., 2023
- [5] Кузнецова Т.В., Иванова А.Н. Клиника и диагностика уратной нефропатии у детей. Российский журнал нефрологии. 2021; 13(2):78-85.
- [6] Морозова Е.В., Лебедев Д.В. Метаболические нефропатии у детей: современные подходы к терапии. Нефрология и диализ. 2021; 23(3):102-109.
- [7] Петряев И.В., Киселева Е.А. Гиперурикемия и уратная нефропатия у детей: современные подходы к диагностике и лечению. Педиатрия. 2019; 98(3):45-52.
- [8] Самадов А.А., Нурматова Н.Ф., Маллаев Ш.Ш. Болаларда нефротик синдромда гастро-дуоденал ўзгаришлар кузатилганда микроэлементлар ҳолати. - Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2024. С.114-120
- [9] Тураева Н.Ю. Клинические и лабораторные особенности течения дисметаболической нефропатии у детей с нарушением пуринового обмена. Междисциплинарный журнал науки и технологий. 2024; 4(7):276-281.
- [10] Cairo MS, Bishop M. Tumor lysis syndrome: new insights. Hematology. 2019;2019(1):349-357.
- [11] Chen X, et al. Metabolic syndrome and uric acid in children. J Pediatr Endocrinol Metab. 2020;33(10):1353-1361.
- [12] Choi HK, Mount DB. Clinical management of hyperuricemia and gout in children. Pediatr Nephrol. 2019;34(9):1573-1582.
- [13] Coiffier B, et al. Management of tumor lysis syndrome. Br J Haematol. 2008;142(1):3-13.
- [14] International Society of Nephrology (ISN) Guidelines. Management of hyperuricemia in children. 2023.

- [15] Johnson RJ, et al. Uric acid and kidney disease: cause or effect? *Curr Opin Nephrol Hypertens.* 2013;22(2):169-175.
- [16] Karimova B.N., Otajonov I.O., Nurmatova N.F. Causes of development and clinical-laboratory manifestations of urate nephropathy in children.- *Central Asian Journal of Medicine*, 2023.P.54-58
- [17] Kawasaki H, et al. Long-term outcomes of urate nephropathy in children. *Pediatr Nephrol.* 2021;36(8):2437-2444.
- [18] Kumar A, Gupta N. Pharmacological management of hyperuricemia in pediatric patients. *Pediatr Drugs.* 2022;24(1):1-10.
- [19] Lee JH, et al. Clinical features of urate nephropathy in children. *Korean J Pediatr.* 2017;60(5):152-158.
